



UDK:458.8

Ra'noxon XUDJAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD
Bagira81@inbox.ru

O'zDJTU professori, DCs H.B.Samigova taqrizi asosida

INGLIZ-O‘ZBEK BADIY TARJIMALARIDA OMONIMLAR QO‘LLANISHINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi omonim so‘zlarning tarjimadagi qo‘llanilishi, etimologik tahlil va barcha ilmiy qarashlarimizni uyg‘unlashtirgan holda omonimiya hodisasini barcha tillarga xos universal ekanli ilmiy nuqtayi nazaridan dalillangan. Til sistemasida har bir kategoriya o‘z funksiyasiga ega hisoblanadi. Tilda ortiqcha narsa bo‘lmaganidek, til sathlarida omonimlar muhim va barqaror leksik kategoriyadir. Metodologik asosdan kelib chiqqan holda maqolada tadqiqot ob‘ektimiz bo‘lgan omonimlarni tarjima jarayonida qo‘llanilishini tahlil etishda ham miqdoriy, ham sifatli tahlilni parallel ravishda amalga oshirdik. Bunda omonimlarni qo‘llanilishi darajasini turli badiiy adabiyotlar asosida aniq mezonlar asosida tahlil etdik. Dastlab omonimlar genezisi, talqini, tasnifi, tavsifi belgilab olindi va shu asosda tavsifiy va miqdoriy tahlil yordamida omonimlarni badiiy asarlarda va tarjimalarida misolida tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: omonimlar, lisoniy omillar, etimologiya, intralingvistika, universal ekanli, polisemiya, funksiyadosh.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОМОНИМОВ В АНГЛО-УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПЕРЕВОДАХ

Аннотация

В статье рассматривается использование омонимов в английском и узбекском языках при переводе. Этимологический анализ и объединении всех наших научных взглядов доказывают с научной точки зрения, что явление омонимии универсально для всех языков. В языковой системе каждая категория имеет свою функцию. Омонимы являются важной и устойчивой лексической категорией на языковых уровнях, так как в языке нет ничего лишнего. Исходя из методологической базы, в статье при анализе употребления омонимов в процессе перевода мы параллельно проводили как количественный, так и качественный анализ. В данном случае мы проанализировали уровень употребления омонимов по конкретным критериям на основе различной художественной литературы. Первоначально были проанализированы генезис, интерпретация, классификация и описание омонимов, а на основании этого проведен описательный и количественный анализ на примере омонимов в художественных произведениях и переводах.

Ключевые слова: омонимы, лингвистические факторы, этимология, интралингвистика, универсальность, полисемия, функционализм.

COMPARATIVE ANALYSIS OF USING HOMONYMS IN ENGLISH-UZBEK LITERARY TRANSLATIONS

Abstract

The article deals with the using of homonyms in English and Uzbek languages in translation. From a scientific point of view etymological analysis and unification of all our scientific views prove that the phenomenon of homonymy is universal for all languages. In the language system, each category has its own function. Homonyms are an important and stable lexical category at the language levels, since there is nothing superfluous in the language. In the article, according to base on the methodology, when analyzing the use of homonyms in the translation process, we simultaneously carried out both quantitative and qualitative analysis. In this case, we analyzed the level of use of homonyms according to specific criteria based on various fiction. Initially, the genesis, interpretation, classification and description of homonyms were analyzed, and on the basis of this, a descriptive and quantitative analysis was carried out using the example of homonyms in works of art and translations.

Key words: homonyms, linguistic factors, etymology, intralinguistics, universality, polysemy, functionalism.

Kirish. Omonimlarning tarjima keng qo‘llanilishi, leksik ma‘no taraqqiyoti, denotativ, konnotativ ma‘nolari, terminologik ma‘nolari, ma‘no ko‘chishi, troplar hosil qilishdagi ishtiroki, arxaizm hamda istorizmga bo‘lgan munosabati, stilistik imkoniyatlari, uslubiy jihatdan neytralligi, uslubiy xoslanganligi (so‘zlashuv, badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik uslublarda ishlatilish darajasi), emotsional ekspressivlikka bo‘lgan munosabati (ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan leksik omonimlar), ob‘ektiv va sub‘ektiv baho ifodalash xususiyati kabilar omonimlarning semantik maydonining kengayishiga ta‘sir etuvchi lisoniy omillar sifatida baholanishi mumkin.

Zamonaviy ingliz tilining shakllanish davrida til tizimida “sinonimlar kurashi” yoki “omonimlar konflikti” nomi bilan atalgan jarayon muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, omonimlarning ingliz tilida yuzaga kelishining

lingvistik asoslarini tushuntirishda bu kabi holatlar samaralidir. Ingliz va o‘zbek tillariga kirib kelayotgan o‘zlashmalar o‘zining haqiqiy mohiyatidan yiroqlashishi mumkin. Buning natijasida ikki so‘zning semantik strukturasi yoki stilistik imkoniyatlarida o‘zgarish yuz beradi. Bunday jarayon, ayniqsa, o‘rta ingliz tili davrida faol yuz bergan.

O‘zlashma so‘zlar ta‘sirida ingliz va o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan o‘z qatlamga mansub bo‘lgan leksik birlikning nutqda ishlatilishi kamayadi, asta-sekin u kundalik iste‘moldan chiqib ketishi yoki qo‘llanilish darajasi cheklanib qolib, nafaol qatlamga aylanishi mumkin. Ya‘ni o‘zlashma so‘z o‘z qatlamga oid so‘zni tarixiy taraqqiyot jarayonida siqib chiqarishi mumkin. Bu esa omonimlarning yuzaga kelishida muhim lisoniy (intralingvistik) omil bo‘lib hisoblanadi.

Masalan, school1 ning 4-ma'nosi (figurative meaning) "a group of people holding the same beliefs or opinions" "maslak va e'tiqodlari bir xil bo'lgan odamlar jamoasi" tarzida izohlangan. Ayni shu ko'chma uzoq taraqqiyot natijasida school2 omonimining yuzaga kelishi uchun lisoniy omil bo'lib xizmat qilgan. School2 – "a large group of the same kind of fish or water animals swimming together" (to'da-to'da bo'lib suzib yuruvchi baliqlar guruhi yoki suv hayvonlari) ma'nosini ifodalaydi. School1 va school2 omonimlarining semalari orasida "guruh-guruh bo'lish", "jamoat" semasi integral sema bo'lgan, boshqa semalariga ko'ra ular farqlangan. Ya'ni bu o'rinda "odamlar jamoasi" va "hayvonlar to'dasi" differensial semalarning bo'rtirilishi natijasida genetik bog'lanmagan leksik omonimlar qatori hosil bo'lgan.

O'zbek tilida ham semantik o'zgarishga uchragan so'zlar talaygina. Jumladan, ko'r omonimi, birinchidan, "ko'rmok" fe'lining buyruq mayli shakli ma'nosida, ikkinchidan, bunga teskari bo'lgan ko'r2 omonimi esa "ko'zi ojiz" degan ma'nolarni ham ifodalaydi. Yoki xotin1 (xatun, jotun) so'zlari qadimgi turkiy tilda faqat "malika", "podshohning ayoli" ma'nosida ishlatilgan, hozir esa bu so'z ikkinchi ma'nosiga ega bo'lib, xotin2 - "umuman har qanday ijtimoiy qatlam vakili bo'lgan erning ayoli" ma'nosida ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yakob Grimm bu holatni shunday baholagan edi: "Tillar tabiatning abadiy va o'zgarmas qonuni panohida rivojlanmadi, balki ular xalqlarning gullab-yashnashi bilan birga goh tez rivojlandi, goh o'sha xalqlarning vahshiyliги natijasida rivojlanishni sekinlashtirdi va ular taraqqiyotning sevinchiga to'la hamda turg'unlikning zerikarli onlarini boshdan kechirdi"[20].

Insoniyat tarixidagi har qanday ijtimoiy-siyosiy voqea, albatta, tilga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ilmiy adabiyotlarda til taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi faktorlardan biri sifatida ekstralingvistik omillar ham ko'rsatiladi. A.Hojievning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" da bunga shunday ta'rif beriladi: "Ekstralingvistik faktorlar (lot. extra – tashqi+fran.linguistique – tilga xos). Til taraqqiyotida ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv voqelikka doir shart-sharoitlar. Tilning rivojlanishidagi bunday ekstralingvistik shart-sharoitlarga birinchi navbatda ijtimoiy-siyosiy faktorlar kiradi"[17].

Darhaqiqat, tilshunoslikning etnik, ijtimoiy-tarixiy, geografik va boshqa faktorlarni tilning taraqqiyoti va funksiyasi bilan bog'liq hodisalar sifatida o'rganuvchi sohasi bo'lgan ekstralingvistika muntazam rivojlanirib borishni talab etuvchi sohalardandir.

Binobarin, jamiyatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar bevosita tilga ta'sir qiladi. Tildagi ayrim leksik va grammatik birliklarning o'zgarishiga yoki yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Jumladan, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealar: arab istilochilari, somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, mo'g'ullar, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar va boshqa sulolalarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan bog'liq holda, ularning eski o'zbek tilida qoldirgan izlarini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, tilimizning leksikasiga, grammatikasiga o'zgarishlar yuz berishiga turli urug' va qabilalar vakillarining (qarluq, o'g'uz, mang'it, qo'ng'iroq, barlos, keneges, qatag'on, ming kabi urug'lar) hokimiyat tepasiga kelishi ham ta'sir qilgani bizga tarixdan ma'lum.

Bir tildan boshqa tilga so'z o'tishi, lug'at tarkibining ochiq sistema ekanligi haqida ilmiy adabiyotlarda juda ko'p fikrlar bayon qilingan. Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, barcha so'z turkumlarida so'z o'zlashtirilishi bir xilda bo'lmaydi. Masalan, fe'l, ko'makchi va ba'zi boshqa so'z turkumlariga qaraganda ot so'z turkumiga oid so'zlar o'zlashishi miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu

jihatdan bo'lsa kerakki, omonimlar orasida ot so'z turkumiga mansub so'zlar salmoqli miqdorni tashkil etadi.

Tarjimashunoslik, leksikologiyaga oid asarlarga qaralsa, ularning deyarli hammasida tillar munosabati orqali lingvistik yoki ekstralingvistik omillar qayd etib o'tilgan. Tillararo bunday munosabat omonimlarning vujudga kelishiga zamin hisoblanadi. Tillarda lingvistik va ekstralingvistik omillarni qiyosan o'rganish uncha maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Balki uni tarixga nisbatan o'rgangan ma'qul deb o'ylaymiz.

Tahlil va natijalar. Barcha tillarda omonimlar mavjud ekan, ular albatta uzoq tarixga ega. Insoniyat rivojlanishi mobaynida barcha sferalarda, kasblarda, adabiyot va san'atda bunday omonimlar mavjud bo'lgan. Ingliz tilida omonimlar matnda turli xil "so'z o'yin" lari (kalambur)ni hosil qilishda muhim leksik vosita hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida; There once was a very large lady in our town. She wore a dress size 16. I knew her when she was young, but she had a much smaller size. Why do you think she is now wearing a size 16? I guess she just 8 + 8 (ate and ate) (66.). Bu misol omonimlar uchun yaqqol misol bo'la oladi.

Yana bir misol: One day an English grammar teacher was looking ill. A student asked, "What's the matter?". "Tense," answered the teacher, describing how he felt. The student paused, and then continued, "What was the matter? What has been the matter? What might have been the matter...?" [22] Lekin omonimlarning bunday funksional imkoniyati ingliz tiliga qaraganda o'zbek tilida yuqori.

Birinchidan, o'zbek tilida qadimdan folklorning boshqa millatlarda kuzatilmaydigan o'ziga xos turi bo'lgan askiya aynan "omonimlar" asosida rivojlangan. Bunda so'zamollik, sharqona lutf, payrov, so'zning turli ma'no jilolaridan mohirona foydalanish talab etiladi.

Ikkinchidan, o'zbek she'riyatida omonimlarga asoslanib yoziladigan lirik janr (tuyuq) va she'riy san'at (tajnis) mavjud bo'lib, u ham askiya kabi boshqa millatlar adabiyotida kuzatilmaydi. Bu xususiyatlar esa o'zbek tilidagi omonimlarning tarjimadagi lingvomadaniy jig'atlarini ko'rsatib beradi.

Omonimlardan foydalanish o'zbek tili misolida og'zaki va yozma adabiyotda san'at darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu jihatdan u ingliz tilidan farqlanadi. Omonimlar o'zbek poeziyasi tarixida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shoirlar omonimlarning xilma-xil ma'nolaridan keng foydalanib, so'z o'yinlari va tuyuqlar yaratganlar. Xususan, A. Navoiyning omonimlardan mohirlik bilan foydalanganligini ko'ramiz. Masalan,

Ul quyoshdin topti bu oqshom bizning koshona sham',
Qilmasun bu uyni dudidin qarong'u yona sham'.

Band ayog'ida lagandin boshida soch dudidin,

Ul pari hajrinda mendek dur magar devona sham'. (A. Navoiyning "Ul quyoshdin topti bu oqshom bizning koshona sham'" g'azalidan olingan).

Shuningdek, H.Xorazmiy, nazm ustasi Uvaysiy "aylanay" so'zi vositasida ajoyib so'z o'yini yarata olganlar.

Dilrabo, o'tir, boshingdan aylanay,

Pandim ol, o'lsam so'nganim ayla nay. (Uvaysiy)

Ul sanamning yuzikim gulzor erur,

Yuzining gulzorina gul zor erur. (H.Xorazmiy)

Bundan ko'rinadiki, omonimlardan askiya va tuyuqda "san'at" darajasida foydalanish omonimlarning keng funksional-uslubiy imkoniyatlari o'zbek tilining o'ziga xos tipologik xususiyatlaridan biri, ya'ni lingvistik unikaliga deb baholashga imkon beradi.

Omonimlarning go'zal tabiatini Levis Kerollning Alisa haqidagi romanlarida ham uchratish mumkin. Masalan, "Alice in Wonderland" nomli romanda Alisa va sichqonning suhbatidagi omonimlarning (grammatik omonimlarning) naqadar mohirona ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin.

"Mine is a long and a sad tale!" – said the Mouse, turning to Alice and sighing.

"It is a long tail, certainly," – said Alice, looking down with wonder at the Mouse's tail; "but why do you call it sad?"

I have never talked with a mouse, but my guess is that if I would, I'd analyze the string of sound in question as the word 'tail', rather than 'tale', just as Alice did. And note that both tales and tails can be long! But sadness is indeed a very strange kind of property to be ascribed to a tail...

Yuqorida aytib o'tkanimizday, omonimiya dunyoning barcha tillariga xos bo'lgan hodisa, ya'ni absolyut universalidir. Omonimiyaning ma'lum bir muammolarini hal qilishda bir qarorga kelish harakatlari va bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilishiga qaramay ko'p savollar ochiq qolmoqda.

Lekin omonimlar barcha tillarda kuzatilsa ham, ularning har bir tildagi "namoyon bo'lishi", yuzaga kelish asoslari va manbalari, qay darajada uchrashi kabi jihatlarini bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun, omonimiya hodisasi turli tillar misolida muayyan aspektlarda tadqiq etilishi hali hanuz davom etmoqda. Ayniqsa, tarjima jarayonlarida, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida, tillararo omonimiya hodisasi kabi jarayonlarda omonimlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi omonimlar bilan bog'liq muammoli nuqtalarga yechim topishda dolzarblik kasb etadi.

Omonimlar tarjimashunoslikda, xorijiy tillarni mukammal egallashda o'ziga xos "to'siq" bo'ladi, ma'lum qiyinchilik va murakkabliklarni tug'diradi. Bir xil lisoniy shakl turli xil ma'nolarga ega bo'lishi va omonimlarning matnini idrok etishda o'quvchini qiyin ahvolga solishi mazkur birliklarni tadqiq etishning yana bir pragmatik tomonini ko'rsatadi.

Til o'qitish, tarjimonlar tayorlash jarayonida omonimlar bilan bog'liq muommolar asta-sekin tilni mukammal kontekstga bog'lab o'rganish asosida hal etilishi mumkin. Lekin omonimlar bilan bog'liq muammolarni mazkur metod bilan hal etib bo'lmaydi.

Tarjima jarayonida omonimlarning qo'llanilishini tahlil etish uchun omonimlar ro'yxatini aniq belgilab olish hamda ularni ishlatilishi va ma'nolari bilan bog'liq etimologik izohlar, sharhlar yordamida tavsiflash, so'ng yagona lug'atga jamlash lozim. Bir so'z bilan aytganda, omonimlarning kitob shaklidagi lug'atini va maxsuslektron lug'atini yaratish lozim.

To'g'ri, shu kunga qadar ingliz tilida ko'plab omonimlar lug'ati yaratilgan, ammo o'zbek tilida biz tomonimizdan va Sh.Rahmatullaevning lug'ati mavjud xolos. Xususan, R.Bridjezning omonimlar ro'yxatida 800 omonimik guruh keltirilgan (2, 3-48). Ushbu asarning ahamiyati shundaki, unda faqatgina talaffuz jihatidan bir xil bo'lgan omonimlar ajratib berilgan.

Bir turkum doirasida yuzaga kelgan omonimik qatorlardan ko'ra turli so'z turkumlari doirasida shakllangan omonimik qatorlarda yoki ularning ichki strukturasi va o'sha qatoridagi omonimik so'zlar o'rtasida polisemiyaning tarmoqlanishini ko'plab xolatlarda kuzatish mumkin.

Masalan, etimologik jihatdan bir tilga oid va turli so'z turkumlariga tegishli bo'lgan o'zbek tilidagi dov omonimik qatorini olsak. Bunda dov2 va dov3 so'zlari qolgan so'zlarga, ya'ni dov1, dov4 va dov5 so'zlariga nisbatan polisemiya hisoblanadi. Dov1, dov4 va dov5 so'zlari esa omonim hisoblanadi.

Dov I [tojikcha] ot. Qimorda katta tikish. Dov II [tojikcha] sifat. Qo'rqmas, jur'atli, dadil. Dov III [tojikcha] ot.

Jur'at, dadillik. Dov IV [tojikcha] ot. talab, da'vo. Dov V [tojikcha] sifat. Bo'ychan, katta. Dov VI [tojikcha] dov-daraxt. Bu misolda ko'rishimiz mumkinki, polisemiya nafaqat ma'nolar o'rtasida, balki o'sha ma'nolar ichida ham uchrashi mumkin.

Endi xuddi shunday misolni ingliz tilidagi omonimik qatorida ko'rib chiqsak. Table1 – piece of furniture consisting of a flap top with (usu. four) supports (called legs). Table2 – (sigh only) people seated at a table. Table3 – (sigh only) food provided at a table. Table4 – list of orderly arrangement of facts, information, etc (use in columns). Ko'rib turganingizdek, table omonimik qatoridagi table1, table2, table3 omonim so'zlari o'rtasida polisemiya mavjud, table4 omonimi esa bundan mustasno bo'lib, boshqa so'zlarga nisbatan omonimdir. Bu muammo juda ko'plab tilshunoslar tarafidan tadqiq etilganligiga qaramay, lug'at tuzishdagi bu so'zlarning berilishi, tanlab olish prinsiplari, farqlari to'liq aks etmagan.

Omonimiya va polisemiyaning talqini hamda tahlili albatta leksikografiya bilan uzviy bog'liqdir. Lug'atlarda polisemantik so'zlar bir so'zning o'z (denotativ) va ko'chma (konnotativ) ma'nolari asosida yuzaga kelgani bois, ular umumiy izohli lug'atlarda bir vokabulaning ichida tarmoqlanishi, kichik fasllarda bo'lib berilishi kerak.

Omonimlar esa aksincha, bir xil shakldagi bir necha mustaqil so'zlar bo'lgani bois, ular umumiy izohli lug'atlarda ham, maxsus tarmoq (omonimlar) lug'atlarida ham alohida raqamlar (rim yoki arab raqamlari)da berilishi kerak, ammo ba'zi bir lug'atlarda bunga e'tibor qilinmaydi. Bu masalaga e'tiborsizlik esa nafaqat ona tilimizdagi adabiyotlarni o'qib o'rganishda, chet el adabiyotlarini tarjima qilishda, o'qishda qiyinchiliklar tug'dirishi turgan gap.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytamizki, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganishda, tarjimonlarni sifatli shakllantirishda omonimlarning barcha turlarini qamrab olgan va tilning tarixiy taraqqiyotining turli boqichlaridagi o'zgarishlarni e'tiborga olgan mukammal lug'at mavjud emas.

Yana shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi omonimlarning mukammal lug'atining mavjud emasligi bir tildan ikkinchi tilga qilinayotgan tarjimalarning go'zal, barqaror chiqishida tarjimon uchun juda ko'plab muammolarni tug'dirgan va tug'dirmoqda.

Inson yordamida amalga oshiriladigan tarjima san'at darajasiga ko'tarilgan, omonimlarning lug'at maqolalarida keltirilgan defnitsiyalaridan kelib chiqqan holda ongli ravishda tarjima jarayoni muvaffaqiyatli yuzaga chiqadi. Boisi tarjimon o'z lingvistik intuitsiyasi va kompetensiyasiga hamda leksikografik bazaga tayangan holda omonimiya muammosini hal etadi. Bu jarayonda tarjimonga ma'lum muammo keltirib chiqaruvchi aspekt asosan omonimlarga aloqador bo'lib, u, albatta, omonimlarning to'liq ro'yxatiga ehtiyoj sezadi. Vaholanki, yaratilgan lug'atlarda ular aralash holda va noto'liq tarzda qayd etilgan.

Xulosa ta takliflar. Demak, omonimlar lug'ati tarjimonning ham ish stolidagi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Lekin omonimiya muammosi ko'proq qiyinchilik tug'diradigan soha "avtomatik tarjima" yo'nalishidadir. Chunki avtomatik tarjimaning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun tabiiy tildagi eng katta to'siq omonimiya bilan bog'liqdir degan fikrni Dj.Siokumning ishlarida uchratish mumkin, ya'ni kompyuter bir qiymatlilik tamoyiliga asoslanib ish ko'radi, bunda bir shaklga bir ma'no yo'q lanishi nazarda tutiladi (13, 358). Omonimiya esa mazkur tamoyilga zid keladi, chunki unda bir shaklda bir necha ma'no ifodalanadi. Mana shu jihatdan mashina tarjimasi uchun omonimlar muammo tug'dirishi tabiiy. Mazkur muammoni hal etish yuzasidan shu kungacha turli xil avtomatik tarjima modellari yaratilgan, lekin ularning barchasi mashina tarjimasining maksimal darajada muvaffaqiyatli amalga oshishida ma'lum

darajada xizmat qilmoqda. Bu jarayonda, bizningcha, omonimlarning to'liq jamlanmasini yaratish va ular asosida "omonimlarning elektron lug'ati" ni ishlab chiqish hamda uni tarjimon dasturlarning bazasiga joylash lozim. Shunda avtomatik tarjimaning sifatini bir oz yuksaltirishga erishish mumkin.

Barchamizga ma'lumki, zamonaviy tarjimonlik jarayonlarida ko'proq amaliy tarjimalarga murojaat etilmoqda. Hozirgi kunda juda ko'plab elektron lug'atlar mavjud, chunki

ular hayotimizni osonlashtirishga yordam beradi. Bu kabi lug'atlar turli tillarni o'rganishda, matnlar tarjimasining to'la-to'kis, muqobil chiqishida katta rol o'ynaydi.

Demak, elektron lug'atlar qanchalik zamonaviy leksikografiya talablariga javob bersa, ya'ni biz avvalgi tadqiqotlarimizda aytib o'tilgan prinsiplar asosida tuzilsa, har bir sohani qamrab oluvchi alohida - alohida omonimlar elektron lug'atlari yaratilsa, kitobxonlar ham tarjimonlar ham avtomatik tarjima jarayonlarida muammolardan holi bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. –T.: O'zbekiston. 1994. 26-b.
2. Bridges R.S. On English Homophones // Society for Pure English. Oxford. 1919. Vol. 1. – P. 3-48. On English homophones. –London, 1922.
3. Golovnya A.I. Konseptualnoe pole omonimii // Lingvistika: vzaimodeystvie konsepsiy i paradigmi. Materiali mejvedomstvennoy nauchno-teoreticheskoy konferensii. Vip. 1, ch. 2. – Xarkov-Sochi, 1991. – S. 427–428.
4. Djurabaeva M.A. Affikslnaya omonimiya v uzbekskom yazike. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. — T.:, 1975.
5. Ismailov G.M. Omonimiya Transterminov (na materiale uzbekskogo yazika) Institut yazika i literaturi Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. – T.: 2012.
6. Ilyos Muslim. Tom Soyerning sarguzashtlari.
7. Mirtojiev M.O'zbek tilida omonimlarning paydo bo'lishi. Diss... kand. filol. nauk. –T., 1963.
8. Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. – T.:1975. –S.15. (134)
9. Mark Twain. The adventures of Tom Sawyer. Hartford. 1876. 168 p.
10. Muminov A.M. Lexicology Of The English Language. –T.: Mexridaryo., 2008. – 161 r.
11. Qutadg'u bilig (nasriy bayon muallifi B.To'xliiev). – T.: 1990.
12. Rahmatullaev Sh. Omonimlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1984.
13. Siokum Dj. Obzor razrabotok po mashinnomu perevodu: istoriya voprosa, sovremennoe sostoyanie i perspektivi razvitiya // Novoe v zarubejnoj lingvistike. Vip. 24. –M.: 1989. – S. 358.
14. Sipisheva M.Ye. K voprosu o razgranichenii polisemii i omonimii // V kn.: Voprosi romano-germanskoj filologii. – T.: Fan, 1967. – 65 b.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. V 5 t. T. I - V. T., O'zbekiston, 2006.
16. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – 110 b.
17. Hojiev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. –T.: Fan, 2010. – B. 165.
18. The Oxford dictionary of the English language. V. 13 t. Oxford, 1967.
19. Walter William Skeat An Etymological Dictionary of the English Language Izd. 2 Clarendon Press. 1893. – r. 844
20. Yakob Grimm. Oproisxojdenii yazika // Xrestomatiya po istorii yazikoznaniya XIX-XX vekov /sostavitel Zvegensov V.A./ - M., 1956. –s.63.